

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING RENTABELLIGINI TAMINLASH  
BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Sheraliev Abbos Xolmuminovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, “Moliya va bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14976913>

*Annotatsiya.* Ushbu tezisda Tijorat banklari aktivlarining rentabelligiga tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, sof foizli marja ko‘rsatkichiga baho berish aktivlarning daromadlilik darajasiga baho berish, Xitoy ning yirik banklaridan biri bo‘lgan, ICBC bankida (Xitoy) sof foizli marja ko‘rsatkichining darajasi miqdori 2019-2023 yillarda 4 yillik hisobot ma’lumotlari asosida o‘rganilgan hamda tegishli xulosalar qilingan.

*Kalit so‘zlar:* tijorat banki, aktivlarining rentabelli, aktivlarning daromadliliği, sof foizli marja ko‘rsatkichiga.

---

Ta’kidlash joizki, tijorat banklarining rentabelligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, sof foizli marja ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich sof foizli daromadning brutto aktivlarga nisbatan darajasini ko‘rsatadi va banklarning moliyaviy xavfsizligini baholashda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xozirgi kunda dunyo bank amaliyotida tijorat banklari aktivlarining daromadlilagini tavsiflovchi bir qator ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib, ular orasida sof foizli marja va 1 so‘mlik aktivlarga to‘g‘ri keladigan daromad darajasi ko‘rsatkichlari bank aktivlarining moliyaviy tahlilida keng qo‘llaniladi.

Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son<sup>1</sup> Farmonida tijorat banklari faoliyatiga umume’tirof etilgan zamonaviy me’yorlar, standartlar va baholash ko‘rsatkichlarini joriy qilish, bank- moliya tizimini xalqaro reyting tashkilotlari baholashi asosida baholash ko‘rsatkichlarini yanada takomillashtirish, likvidligi va barqarorligi bo‘yicha talablarni bajarilishini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Prof. J.Sinkining fikriga ko‘ra, tijorat banklarining daromad bazasiga baho berishda sof foizli marja ko‘rsatkichi muhim o‘rin tutadi. Sof foizli marja bank aktivlari miqdoriga teskari proporsional bo‘lib, kreditlar va depozitlar bozoridagi yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni


kuchli ta'sir ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Bu erda J.Sinki sof foizli marjani sof foizli daromadning brutto aktivlarga nisbati ekanligini va taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida bank foizli daromadlarinining katta qismini kreditlardan olingen foizli daromadlar tashkil etishini, foizli xarajatlarning asosiy qismini muddatli va jamg'arma depozitlarga to'langan foizlardan iborat ekanligini nazarda tutmoqda.

D.Maknotonning xulosasiga ko'ra, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda foizli daromadlarning o'rni katta bo'lib, ular yalpi daromadining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog'i kamida 70 foiz bo'lishi kerak

CHunki, sof foyda tijorat banklari faoliyatining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, tijorat banklari aktivlarining daromadlilik darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri aktivlarning riskka tortilgan summasining o'zgarishi hisoblanadi. CHunki, aktivlarning daromadliligi va risk darajalari o'rtasidagi to'g'ri mutanosiblik mayjud: aktivning risk darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning daromadlilik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. SHu sababli, tijorat banklarida riskka tortilgan aktivlar summasi bilan sof foyda o'rtasida ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Biz quyida ICBC bankning sof foizli marja ko'rsatkichining darajasi va o'zgarishiga baho beramiz.



**1.5-rasm. ICBC bankida (Xitoy) sof foizli marja ko'rsatkichining darajasi<sup>3</sup>, foizda**


1.5-rasm ma'lumotlaridan ko'rindaniki, ICBC bankida sof foizli marja ko'rsatkichining darajasi 2021-2023 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lган.

Tijorat banklarida sof foizli marja ko'rsatkichining barqarorligini ta'minlash uchun, birinchidan, sof foizli daromadning miqdorini kamayishiga yo'l qo'ymaslik kerak; ikkinchidan, bank aktivlari miqdorining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash kerak.

<sup>2</sup> Sinki Dj. Finansoviy menedjment v kommercheskom banke i v industrii finansovix uslug. Per. s angl. – M.: Alpina Publisher, 2017. – S.338.

<sup>3</sup> Jadval muallif tomonidan Industrial and Commercial Bank of China bankining 2018-2022 yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari (Annual Reports. Consolidated Statement of Profit or Loss. Consolidated Statement of Financial Position. 2018-2022 y.) ma'lumotlari asosida tuzilgan..

Transmilliy banklarda kreditlash operatsiyalari va qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalar yuqori darajada rivojlangan. Bunning ustiga, mazkur banklarning moliya bozorlaridagi reputatsiyasi ijobiy va yuqoridir. Bu esa, ularga foizli daromadlar va foizli xarajatlar o‘rtasidagi nisbatning barqarorligini ta’minlash imkonini beradi



**2.3-rasm. AT “Asakabank”da sof foizli marjaning darajasi, foizda<sup>4</sup>**

2.3-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Asakabankda sof foizli marjaning darajasi 2019-2021 yillarda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, Asakabankning rentabelligini ta’minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Biroq, ushbu ko‘rsatkichning darajasi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Tijorat banklarida sof foizli marjaning yuqori va barqaror darajasini ta’minlash ikki omiga bog‘liq:

\*bankning foizli daromadlari va foizli xarajatlari o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi;

\*sof foizli daromadning o‘sish sur’ati bilan brutto aktivlarning o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikning ta’milanganligi yoki ta’milanmaganligi.

Sof foydaning o‘sish sur’ati bilan brutto aktivlarning o‘sish sur’ati o‘rtasida mutanosiblik ta’milanmaganda ushbu ikki ko‘rsatkichni tarkibiy tahlil qilish talab etiladi

### Xulosa va takliflar

Tijorat banklarida sof foizli marjaning yuqori va barqaror darajasini ta’minlash ikki omiga bog‘liq:

\*bankning foizli daromadlari va foizli xarajatlari o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi;

\*sof foizli daromadning o‘sish sur’ati bilan brutto aktivlarning o‘sish sur’ati o‘rtasidagi mutanosiblikning ta’milanganligi yoki ta’milanmaganligi.

<sup>4</sup> Rasm muallif tomonidan AT Asakabankning yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Sof foydaning o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtaida mutanosiblik ta'minlanmaganda ushbu ikki ko'rsatkichni tarkibiy tahlil qilish talab etiladi

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. Sinki Dj. Finansoviy menedjment v kommercheskom banke i v industrii finansovix uslug. Per. s angl. – M.: Alpina Publisher, 2017. – S.338.
3. Maknotin D. Bankovskiye uchrejdeniya v razvivayushixsy stran. Per. s angl. – Vashington: IER, 1994. – 374 s.
4. Industrial and Commercial Bank of China bankining 2018-2022 yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari
5. AT Asakabankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.